



Международный современный научно-практический журнал

Новости образования: Исследование в XXI веке

№ 8 (100)
март 2023 г.

Часть 2

Издается с августа 2022 года

Москва 2023

Maxsudova O. N	
MANG'ITLAR DAVRIDA BUXORODA MADANIY HAYOT (ME'MORCHILIK, ADABIYOT VA SAN'AT) Ubaydullayeva Shohista Hidoyatillo qizi	396
OGAHYIY IJODIDA MUSAMMAT JANRI Shukurx'ojayeva Roziyaxon Salimova Zebo	400
PECULIARITIES OF TEACHING A FOREIGN LANGUAGE TO YOUNG CHILDREN Kamolova Saida Zufar qizi Botirova Hakima	405
O'ZBEKLARNING CHORJO'YDAGI HAYOT YO'LLARI Hayotov Feruz Umidjonovich To'rayev Anvar Ismoilovich	409
HOZIRGI DAVRDA JAHON MAMLAKATLARI TA'LIM TIZIMI VA PEDAGOGIKA FANI RIVOJI Nomozova Muborak To'lqin qizi	414
MILLIY QADRIYATLAR VA MA'NAVIY MEROSNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI Mustafoyeva Mushtariz Zohid qizi	420
ROSSIYA IMPERIYASI BOSQINI DAVRIDA O'RTA OSIYO HUDUDLARIDA TA'LIM SIFATI VA DARAJASI Qushmatova Madina Valijonovna Ashirova Noila Xasanovna	423
BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QISH DARSLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI Abdullayeva Lobar Abdulboqievna	427
BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARIDA O'YINLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH BO'YICHA METODIK TAVSIYALAR Abdullayeva Lobar Abdulboqievna	430
BOSHLANG'ICH SINFLARDA TA'LIMYIY O'YINLARDAN FOYDALANISHI Abdullayeva Lobar Abdulboqievna	433

REFERENCES :

1. ABDUGANIYEVNA, AKRAMXODJAYEVA DILFUZA. "Effective Teaching of a Foreign Language Through a Contextual Approach." JournalNX 6.10: 180-181.
2. Abdullaeva Marhabo Raxmonkulovna. (2021). Ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima yaraishi va o'ziga xos xususiyatda. Innovation, integration va ta'lim bo'yicha xalqaro ma'lumot jurnali, 2 (2), 297-306.
<https://summusjournals.uz/index.php/ijdiie/article/view/641>
3. Raxmonkulovna, Abdullayeva Markhabo. "English-uzbek translation process and their analysis." Web of Scientist: International Scientific Research Journal 2.05 (2021): 583-601.
4. Abdujabborova Kamola Husniddin Qizi. Improving literacy skills through learning reading // Наука и образование сегодня. 2021. №4 (63). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/improving-literacy-skills-throughlearning-reading>
5. Sevara Baxodirovna, I., Sharipjanovna, R., BarnoAliyevna, T. (2021). Development of Lexical Competence In Students Of Higher Educational Institutions. Int. J. of Aquatic Science, 12(3), 2938-2943.
6. Rakhmanberdiyeva, Karima Saydanovna (2022). Analysis of independent learning technology in foreign language teaching to students. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (3), 35-39.
7. Ibragimova Sevara Bakhodirovna (2020). 'Use of New Pedagogical Technologies in Foreign Language Lessons', IJAPR, ISSN: 2643-9123 Vol. 4 Issue 12, December - 2020, Pages: 38-39.
8. Raxmonkulovna A. M. English-Uzbek translation process and their analysis //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2021. – Т. 2. – №. 05. – С. 583-601.

O'ZBEKLARNING CHORJO'YDAGI HAYOT YO'LLARI

Hayotov Feruz Umidjonovich

Buxoro Davlat Universiteti, Tarix va Yuridik fakulteti 3-bosqich talabasi

To'rayev Anvar Ismoilovich

Buxoro Davlat Universiteti, Jahon tarixi kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Turkmanistonning Chorjo'y hududida istiqomat qiluvchi o'zbeklarning kelib chiqishi va ularning tarixi, shuningdek ushbu hududning boshqaruv apparatini tashkil qilgan o'zbeklar hamda sovet davridagi ma'muriy-hududiy bo'linish, hamda mustaqillik yillaridagi ahvol haqida so'z boradi. Chorjo'ylik o'zbeklarning qishloq xo'jaligi, oshpazlik san'ati hamda til va madaniyatlar almashinuvi haqida ham ma'lumatlar berilgan.*

Abstract: *This article talks about the origin and history of the Uzbeks living in the Charjoi region of Turkmenistan, as well as the Uzbeks who formed the administrative apparatus of this region and the administrative-territorial division in the Soviet era, as well as the situation in the years of independence. Information is also given about the agriculture, culinary arts, language and cultural exchange of Charjoi Uzbeks.*

Kalit so'zlar: *o'zbek, Chorjo'y etrapi, Amul, "Boburnoma", Chahorjo'y, "Tarixi Salimiy", siyosiy elita, Pol Nadar, ЭСБЕ, "Samarqand", Karmana, Islom Karimov haykali, "qovunlar qirolchasi", "gulobi", qorako'ltirichilik, ersari, "palov", sumalak, dialect, mentalitet.*

Key words: *Uzbek, Chorjoi etrap, Amul, "Boburnoma", Chahorjoi, "History of Salimiy", political elite, Paul Nadar, ESBE, "Samarkand", Karmana, Islam Karimov statue, "Queen of Melons", "Globi", Karakolterilik, Ersari, "pilaf", Sumalak, dialect, mentality.*

Barchamizga ma'lumki, o'zbeklar uzoq o'tmishga ega, shuningdek, tarixning muhim o'ziga xos bosqichlarini o'z boshidan kechirgan xalqdir. Shayboniyxonning O'rta Osiyo hududiga bosqini jarayonida "o'zbek" atamasi kirib kelgan bo'lib, keyinchalik esa mahalliy etnoslarning nomiga aylandi. Tarixdan ma'lumki, o'zbek xalqining shakllanish jarayoni uzoq vaqt davom etgan bo'lib, etnik birlik tarkibida 92 urug'lar tashkil topgan. Ulardan hatto siyosiy elita, sulolalar yetishib chiqdi va ular o'ziga xos davlatchilik asoslarini tuzgan holda O'rta Osiyoda tashkil topgan Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarini boshqara boshlashdi. Hozirgi kunda tashkil topgan respublikalar tarkibida ham ushbu millat vakillari istiqomat qilishib, o'zaro tinch hayot kechirishadi.

Chorjo'y etrapi¹⁶ – bu Turkmanistonda joylashgan va rasman Lebap viloyati Turkmanobod nomi bilan yuritiluvchi shaharlardan biri hisoblanadi. Shuningdek, bu hududda yashovchi aholining asosiy qismini turkmanlardan tashqari ikkinchi o'rinda

¹⁶ Etrap – tuman, okrug.

o'zbeklar tashkil qiladi. Aholining o'sish sur'ati ichki migratsiya va tug'ilish sonining oshib borishi natijasida yuz bormoqda¹⁷.

Chorjo'y shahrining dastlabki nomi Amul bo'lib, ushbu joy nomi milodiy I-IV asrlarga tegishlidir. Bu shahar Amudaryo etagida tashkil topgan bo'lib, aholi gavjum holda yashaganidan boshlab, O'rta Osiyo hududini kesib o'tuvchi Buyuk Ipak yo'lining asosiy tarmog'i Chorjo'y markazi bilan kesishib o'tgan¹⁸. O'rta Osiyoda turkiy xalqlarning shakllanish jarayoni davom etib, ulardan o'g'uz qabilalariga mansub Saljuqiylar XI asrda butun O'rta Osiyo hududini egallab olishgan. Shundan so'ng, Amul shahri Saljuqiy shoh Chag'ribek qo'lga o'tgan. Keyinchalik esa Xorazmshohlar davlarining tarkibiy qismiga aylangan bo'lsa, Xorazmshohlar sulolasi hokimiyatdan ketganidan so'ng 1221 yilda Chingizxon boshchiligidagi mo'g'ul-totorlar bosqiniga duchor bo'lgan. 1551 yilda esa o'z mamlakati sarhadlarini tark etayotgan Zahiriddin Muhammad Bobur o'z qo'shini bilan birgalikda mo'g'ullar bosqini davrida vayron qilingan Amul shahri xarobalari oldidan o'tarkan, o'zi to'qnashgan to'rt ariq oldida qo'nim topishadi. Shu yerda esa, "Boburnoma" asarida yozilishicha bu joyga fors-tojikcha "Chahorjo'y" nomi, ya'ni, "chahor" yoki "chor" to'rt, "joy" esa ariq ma'nolarini anglatuvchi so'z ilk bor ushbu nom bilan atalga¹⁹.

XVI asrda esa ushbu hududda o'zbek aholisining o'rnashish va o'troqlashish jarayoni yuz beradi. Buxoro xonligi tarkibiga kirgan ushbu hudud, xonlikning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda savdo markazlaridan biriga aylangan. Shahar o'zining taraqqiyoti bilan birgalikda o'z boshidan sulolaviy-hududiy urushlarni ham o'z boshidan kechirgan. Jumladan, Buxoro xonligidan ajralib chiqqan Xiva xonligida hukm surgan Shayboniylar sulolasi (Buxorodagi sulolaga qarindosh boshqa shoxi) ning Buxoro Shayboniylariga bo'lgan xusumati sabab yuz bergan o'zaro sulolaviy nizo oqibatida, Marv vohasi bilan birgalikda Chorjo'y vohasi ham urush harakatlari girdobida qolgan. Hatto ikkala xonlikda ushbu sulolalar o'z o'rnini boshqa dinastiyaga bo'shatib bergan bo'lsa hamki, urush va nizolar to'xtamagan. Bu hol xonliklarning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinguniga qadar davom etgan.

Bungacha ham Chorjo'y bekligi Buxoro amirligining muhim ahamiyatga ega viloyatlaridan hisoblangan. Chorjo'y bekligini (hokimlari) boshqarish faqatgina amirga qarindosh bo'lgan shaxslar, sulola vakillari hamda amirning o'g'il farzandlarigina idora qila olgan. Misol uchun, Buxoro hukumdori amir Muzaffarning ikkinchi o'gli Said Nuriddinxon To'ra bo'lib, u 1868-1878 yillar oralig'ida Chorjo'y begi sifatida faoliyat yuritgan. Otasi amir

¹⁷<https://ru.m.wikipedia.org/wiki/%D0%A2%D1%83%D1%80%D0%BA%D0%BC%D0%B5%D0%BD%D0%B0%D0%B1%D0%B0%D0%B4> (ushbu havolaga 09.03. 2023 murojat qilindi).

¹⁸ Бурханов А.А. *Амуйль-Чарджуй на трассе Великого шёлкового пути (краткий историко-археологический очерк развития столичного центра Лебанского региона)*. <http://izvestia.asu.ru/2008/4-3/hist/TheNewsOfASU-2008-4-3-hist-06.pdf> (ushbu havolaga 11.03.2023 murojaat qilindi).

¹⁹<https://ru.m.wikipedia.org/wiki/%D0%A2%D1%83%D1%80%D0%BA%D0%BC%D0%B5%D0%BD%D0%B0%D0%B1%D0%B0%D0%B4> (ushbu havolaga 09.03. 2023 murojat qilindi).

Muzaffarning buyrug'iga binoan akasi Abdulmalik To'raning harakatiga qarshi urush olib borgan. Nuriddinxon To'ra yuksak qobiliyatga ega kishi hisoblangan bo'lib, hatto amir uni o'ziga valeahd sifatida tayinlamoqchi bo'lgan. Ammo, u to'satdan sil kasalligi oqibatida 1878 yil olamdan ko'z yumadi. Mirzo Salimbekning "Tarixi Salimiy" asarida keltirilishicha: "Sayyid Mir Nuriddin To'ra xo'b dono va olim kishilardan edilar. U kimsaning Hayo taxallusi bilan yozilgan ajoyib g'azallari bordir. Hazratimiz doimi otalarining so'zlariga kirganlar va u kishiga bo'ysunganlar"²⁰. Chorjo'y bekligini boshqargan mang'it sulolasi vakili Sayyid Mir Siddiqxon To'ra uzoq vaqt amirning ishonli vakili sifatida islohatlar o'tkazgan. Biz bekning tashqi qiyofasi va Chorjo'y shaharining hashamdor ko'rinishini fransuz fotogtafi Pol Nadar 1890 yilda tushirgan tasvirlari orqali ko'rishimiz mumkin²¹.

Demak, Shayboniylar hukmronligi davridan boshlab asosiy boshqaruv apparati o'zbek urug'lari qo'lida bo'lib, Chorjo'yda ular siyosiy elitani tashkil qilishgan.

XIX asrda Chorjo'yga Ural kazaklari ko'chirib keltirilgan. 1877 yilda esa Tortko'ldan Chorjo'yga "Samarqand" nomli paroxod kelishi bilan Chorjo'yda daryo yo'li vujudga kelishiga olib kelgan. 1888 yilda Chorjo'ydan bir necha verst²² uzoqlikda yog'ochdan ishlangan ko'priq Amudaryo ustida qurilib, temiryo'l bilan bog'lanish imkoniyatini bergan. Bu joyning atrofida esa yangi aholi punkti Yangi Chorjo'y vujudga keldi. XX asr boshida yozilgan ЭСБЕ ("Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона") ning "Чарджуй" maqolasida keltirilishucha bu davrda u yerda 4068 kishi, shu jumladan, 2651 erkak va 1417 ayol, shuningdek 3501 rus aholisi istiqomat qilgan²³.

1920 yilda Buxoro amirligi tugatilgach, ushbu hudud keyinchalik Sovet ittifoqining tarkibidagi hudud sifatida kirgan. Chorjo'y shahri shuningdek Buxoro shahrini shturm etishda asosiy tayanch nuqtalardan biri hisoblangan.

Stalinning yuritgan chegaralanish siyosatidan so'ng o'lkada tashkil topgan yangi yangi respublikalardan biri Turkmaniston SSRning tarkibiga kirgan. Bunda Respublika tarkibida Chorjo'y okrugi tashkil topgan va bu okrug 1924 yildan 1930 yilgacha faoliyat yuritgan. Okrugning ma'muriy markazi Yangi Chorjo'y hisoblangan. Bizning fikrimizcha bu shahar ham xuddi O'zbekiston Respublikasining Navoiy viloyati Navoiy shahri singari yangi shahar Navoiy va eski qism Karmanaga o'xshab ketadi.

1924 yil tashkil qilingan Chorjo'y okrugi dastlab Lenin okrugi nomi bilan yuritiladigan bo'lib, ular Burdaliq, Deynov, Lenin (Eski Chorjo'y), Sayat va Farobdan iborat bo'lgan. Keyinchalik esa Darg'on-Otin va Qorabekovul tumanlari tashkil topgan. 1927 yildan qayta eski nomiga Chorjo'y okrugi deb nomlanadigan bo'lgan. 1926 yil ma'lumotlariga ko'ra aholi

²⁰ https://ru.m.wikipedia.org/wiki/%D0%A1%D0%B5%D0%B8%D0%B4_%D0%9D%D1%83%D1%80%D0%B0%D0%B4%D0%B4%D0%B8%D0%BD (ushbu havolaga 11.03.2023 murojaat qilindi).

²¹ <https://www.pinterest.com/pin/541065342744891227/> (ushbu havolaga 10.03.2023 murojaat qilindi).

²² Verst – rus uzunlik o'lchov birligi. 1 verst = 1,0668 km.

²³ <https://ru.m.wikipedia.org/wiki/%D0%A2%D1%83%D1%80%D0%BA%D0%BC%D0%B5%D0%BD%D0%B0%D0%B1%D0%B0%D0%B4> (ushbu havolaga 09.03.2023 murojaat qilindi).

192,1 mingni tashkil qilgan. Jumladan, turkmanlar 68,5 %, o'zbeklar 22,7%, ruslar 4,6%, qozoqlar 1,7% ni tashkil qilishgan²⁴.

Mustaqillik yillarida esa Turkmaniston Respublikasi va O'zbekiston Respublikalari orasidagi sodir bo'lgan sovuq munosabatlar davrida bu ikki mamlakat chegaralari yopib qo'yildi va bu mamlakatlarda yashayotgan qardoshlar o'rtasidagi o'zaro bordi-keldi aloqalari uzil qoishiga olib keldi. Chorjo'yda istiqomat qiluvchi aholi, asosan o'zbeklar O'zbekiston Respublikasi chegaralari ortida qolgan qarindosh urug'lari bilan bog'lanish imkoniyati bo'lmagan.

2017 yilda esa O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan qo'shni mamlakatlar bilan aloqalar yaxshilanishi natijasida chegaralar qayta ochildi va ko'p yillik uzoq uzilgan aloqalar qayta tiklandi.

2017 yilda shuningdek O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning haykali Turkmanobod shahri markaziy qismida o'rnatilishi, bu ikki millat o'rtasidagi abadiy do'stlikning ramzi bo'lib qoladi.

Hozirda Turkmaniston Respublikasi markazlarida ko'plab hunar turlari bilan shug'ullanuvchilar bo'lib, chorjo'yliklar ushbu sohalarda ko'plab yutuqlarga erishishgan. Chorjo'y shahri hozirda qorako'l terichilik bo'yicha yetakchi o'rinlarni egallab kelmoqda. Ushbu hunar bu shaharga amirlik davridan me'rosdir. Buxoro amirligi hududida rivojlangan qorako'lchilik sohasi bo'yicha ham shahar ixtisoslashgan bo'lgan. Shuningdek, o'lkada "gulobi" yoki "gulyabi" nomi bilan mashhur qovun navining yetishtirilishi turli o'lkalarda shahar nomining tanilib ketishiga sabab bo'lgan. Ushbu qovunlar katta tuxumsimon shaklda bo'lib, ko'rinishi jihatidan oq, sariq va yashil ustida xol va yo'l-yo'l chiziq'larga ega bu qovun turi o'z navbatida "qovunlar qirolchasi" nomiga ham sazovor bo'lgan²⁵.

Shahar aholisi aralash joylashgan bo'lib, turkmanlar ham, o'zbeklar ham ma'lum bir mahallalarga jipslashishmagan, balki o'zaro alash holda ikki millat bir-biri bilan qo'shni sifatida o'zaro tinch hayot kechirishib kelmoqda. Agar boshqa hududlarda millat ayirish, boshqa millatlarni aralashtirmaslik kuzatilsa, Chorjo'yda o'zbeklar va turkmanlar orasida hatto oila qurish ham odatiy holdir.

Bunga sabab, Chorjo'yda o'troqlashgan Ersari urug'i joylashganligi bilan belgilanadi. Ersarilar Chorjo'yda bo'la turib, Buxoro amirligi bilan yaqin aloqalar o'rnatish, ularning madaniyatiga moyillik va moslashish, hamda buxoroliklar bilan qarindoshchilik aloqalarini o'rnatish tarafdori bo'lishgan. Ular o'tovlarda yashashgan bo'lsa ham, Chorjo'ydan Balxgacha bo'lgan hududlar oralig'ida yashashgan bo'lib, ularni qoidaga ko'ra Lebab turkmanlari yoki boshqa talqinga ko'ra daryobo'yi turkmanlari deya ham nomlashganlat. Bu etnos vakillarining dunyoqarashi ham xuddi buxoroliklar singari bo'lib, Buxoro aholisi ularning hayot turmush-tarziga ta'sir ko'rsatgan. Ular mahalliy aholi (o'zbeklar)ning

²⁴ https://ru.m.wikipedia.org/wiki/%D0%A7%D0%B0%D1%80%D0%B4%D0%B6%D1%83%D0%B9%D1%81%D0%BA%D0%B8%D0%B9_%D0%BE%D0%BA%D1%80%D1%83%D0%B3 (ushbu havolaga 11.03.2023 murojaat qilindi).

²⁵ <https://glav-dacha.ru/chardzhuykaya-dynya-ili-gulyabi/> (ushbu havolaga 12.03.2023 murojaat qilindi)

tarkibiga qo'shilib ketishgan. Hatto turkmanlarga xos katta junli qalpoq – cho'girma, vaqt o'tgani sayin buxoroliklarnikiga o'xshagan sallaga o'z o'rnini bo'shatib bergan²⁶.

Shuningdek, o'zbek xonadonlaridagi tayyorlanadigan va sevib iste'mol qilinadigan taom ham "Osh-palov" hisoblanadi. Faqat taomning nomi o'zbekistonliklar singari "osh" emas, balki "palov" deb xalq orasida nomlanadi. Xuddi shunday bu taom ham chorjo'ylik o'zbeklar orasidagi eng asosiy tansiq taomlaridan hisoblanadi. Keyingi tansiq taomlardan yana "manti" hamda "xonim" bo'gan. Demak, o'zbek taomlari chorjo'ylik aholi orasida ko'p pishiriliadigan hamda iste'mol qilinadigan taomlar sirasiga kiradi. Shuningdek, Chorjo'yda navro'z ayyomi kirib kelganda o'zbeklar orasidagi odatiy taom "sumalak" ham o'zbekcha usul bo'yicha tayyorlanadi²⁷.

Bugungi kunda Chorjo'ydagi o'zbeklar o'zligini, milliyiligini saqlab qolgan bo'lib, ular xonadonlarida o'z ona tllarida so'zlashishadi. Chorjo'y o'zbeklari xorazm shevasiga yaqin bo'lgan o'g'uz lahjasida so'zlashib kelmoqda. O'z navbatida ularning so'zlashuvida turkmanlarga xos bo'lgan dialekt ham kuzatiladi. Bu yerda yashayotgan mahalliy turkmanlarni o'zbeklarga ta'siri bo'lganidek, o'zbeklarning ham mahalliy aholining moddiy madaniyatiga o'z ta'sitini o'rtkazib kelmoqda. Ko'pchilik turkmanlarga xos bo'lgan, (ayniqsa Ashxobod turkmanlari) barchaga barobar sansirash kuzatilsa, chorjo'yliklarda bunga o'xshagan holatlarni deyarli uchratmaymiz. Bu holat esa o'zbek mentalitetining mahalliy turkmanlarga bo'lgan ta'sirining yaqqol misoli ham hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. А.А. Бурханов. *Амуль-Чарджуй на трассе Великого шёлкового пути (краткий историко-археологический очерк развития столичного центра Лебапского региона)*. <http://izvestia.asu.ru/2008/4-3/hist/TheNewsOfASU-2008-4-3-hist-06.pdf>

2. О. Olufsen. The emir of Bokhara and his country. London: William Heinemann, 1911. -P. 295.

3. Dala tadqiqoti: Lebab viloyati, Chorjo'y shahri. 20.02.2023.

4. <https://ru.m.wikipedia.org/wiki/%D0%A2%D1%83%D1%80%D0%BA%D0%BC%D0%B5%D0%BD%D0%B0%D0%B1%D0%B0%D0%B4>

5. https://ru.m.wikipedia.org/wiki/%D0%A1%D0%B5%D0%B8%D0%B4_%D0%9D%D1%83%D1%80%D0%B0%D0%B4%D0%B4%D0%B8%D0%BD

6. https://ru.m.wikipedia.org/wiki/%D0%A7%D0%B0%D1%80%D0%B4%D0%B6%D1%83%D0%B9%D1%81%D0%BA%D0%B8%D0%B9_%D0%BE%D0%BA%D1%80%D1%83%D0%B3

7. <https://www.pinterest.com/pin/541065342744891227/>

8. <https://glav-dacha.ru/chardzhuyskaya-dynya-ili-gulyabi/>

²⁶ О. Olufsen. The emir of Bokhara and his country. London: William Heinemann, 1911. -P. 295.

²⁷ Dala tadqiqoti: Lebab viloyati, Chorjo'y shahri. 20.02.2023.